



# KORXONANING UZOQ MUDDATLI INVESTITSIYALARINI MANBALARINI BOSHQARISH

**Nazarov Jahongir Mamayokub o'g'li**

*Bank moliya akademiyasi Moliya va moliyalarni boshqarish fakulteti 22-17  
guruh talabasi*

## KIRISH

Kishilarning kundalik hayotida muayyan tirikchilik vositalarini iste'mol qilish ehtiyoji mavjuddir. Bu hayot faoliyatining muntazamligini ta'minlovchi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqalarga bo'lgan ehtiyojdir. Kishilar ehtiyojini qondirish manbai bo'lgan materiallar, xom ashyo va jihozlarning o'ziga ham ehtiyoj mavjuddir. Kishilar ehtiyojini qondirish usuli esa naflilik deb ataladi. Ehtiyoj bilan ne'mat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi holat bilan harakterlanadi. Ehtiyojlar cheksiz bo'lgan holda ne'matlar cheklangandir. Cheklangan ne'matlar iqtisodiy ne'matlar deb ataladi. Iqtisodiy ne'matlar orasida boshqa ne'matlarni ishlab chiqaruvchi ne'matlar, ya'ni resurslar alohida o'rinnegallaydi. Iqtisodiy nazariyada ular, odatda ishlab chiqarish omillari, deb e'tirof etiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: yer, ishchi kuchi, kapital va tadbirkorlik qobiliyatitan olinadi.

Ishlab chiqarish omillaridan biri bo'lgan kapital iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Mumtoz iqtisodchi David Rikardoning fikricha: "Kapital bu mamlakat boyligining ishlab chiqarishda ishtirok etadigan qismi bo'lib, mashina va jihozlar hamda xom ashyo materiallaridan iboratdir"<sup>1</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasida kapital tushunchasiga berilgan ta'riflar ko'proq nazariy, umumlashgan holda bo'lib, uning o'zo'zidan ko'payish xususiyatini aks ettiradi. Buxgalteriya hisobidagi ta'riflarda esa uning aniq namoyon bo'lism shakllariga, buyumlashganligiga ko'proq urg'u beriladi. Bunday yondashish hech ham iqtisodiyot nazariyasiga zid emas. Buxgalteriya hisobida qiymatning qayerda ko'payishi va qanday ko'payish jarayoni, uning manbalari aniq bandlarda ko'rinish turadi. Demak, buxgalteriya hisobida kapitalga iqtisodiyot nazariyasida berilgan ta'rif yanada puxta tizimlashgan shaklda oydinlashadi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan asosiy kapital bu - avvalo iqtisodiy kategoriya bo'lib, tayyorlash, ishlab chiqarish va sotish hamda noishlab chiqarish sohasida ishtirok etayotgan va kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan aktivlardir. Asosiy va aylanma kapitalga ajaratish mezoni

<sup>1</sup> Пети В., Смит А, Рикардо Д. Антология экономической классики. - М.: «Экономика». 1993. - С. 117



negzida ularning ma'lum bir qiymatga bog'liqligi emas, balki iqtisodiy naf keltira olishi yotishi kerak.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tomas Maltusning fikricha, "Kapital- bu mamlakat zahirasining shunday qismidirki, undan moddiy ne'mat ishlab chiqarish va uni taqsimlash maqsadida foydalaniladi".

Dj.Klark, L.Valras va I.Fisher "kapital -bu daromad, foyda va foizkeltiruvchi qiymat", deb qaraydilar. Ammo K.Makkonnell, S.Bryu, S.Fisher, R.Dornbush, R.SHmalenzilar kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni mashinalar, asbobuskunalar, inshootlar , zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari kabilardan iborat, deb tovar va pulni bunga kiritmaydilar . Ko'rinib turibdiki, ushbu iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning ijtimoiy mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama yondashib, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni kuchaytirgan.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish o'z mablag'lari va qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilar ekan. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qancha e'tibor kuchaysa iqtisodiy erkinligimiz shuncha kuchayadi. Ayniqsa chet eldan investitsiyalarni jalb qilish mamlakatimizda ishlab chiqarish sohalari, bozor iqtisodiyoti va mexanizmini , qurilish va sanoatni rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.Loyihalarni moliyalashtirish bu zamonaviy texnika-texnologiyalarni modernizatsiya qilish va qayta yangilash, xalq iste'moli uchun yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, shuningdek respublikaning eksport salohiyatini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko'rsatish maqsadida Respublikaga jalb qilinadigan texnologiyalarga yo'naltiriladigan yirik investitsiya loyihalari va dasturlarni moliyalashtirish hisoblanadi. Shuning uchun ham yosh avlodni Moliyaviy va iqtisodiy bilim va ko'nikmalari qanca yaxshi bo'lsa, kelajakda bu kabi investitsyon loyihalarni moliyalashtirish shuncha ko'p bo'ladi. Buning uchun esa bu kabi ma'lumotlarni sifatli va ishonchli qilib ommaga taqdim qilishimiz va yoshlarni kerakli axborot manbalari bilan ta'minlashimiz darkor.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Samariddin ELMIRZAYEV "Korporativ Moliya" Toshkent-2015
2. T. Malikov iqtisodiyot fanlari doktori, professor O. Olimjonov iqtisodiyot fanlari doktori, professor "Moliya" Toshkent "IQTISOD-MOLIYA"2019
3. T.S. Malikov "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Moliysi" Toshkent "IQTISOD-MOLIYA"



4. 2010 «Риски в экономике» L.N.Tepman, professor  
V.A.Shvandarning redaktsiyasi ostida, Moskva-2002 yil.

## FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-823344>
2. <https://uz.delachieve.com/uzoq-muddatli-investitsiyalar-haqiqiy-qiymati-buxgalteriya-bir-mulohaza/>
3. <https://xs.uz/uz/post/investitsiyalar-va-investitsiya-faoliyati-togrisida>
4. [https://e-](https://e-library.namdu.uz/65%20%D0%98%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/Muratov%20R.S.%20Korxona%20iqtisodiyoti.pdf)  
library.namdu.uz/65%20%D0%98%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/Muratov%20R.S.%20Korxona%20iqtisodiyoti.pdf
5. <http://genderi.org/anvarov-azizbekning-invetitsiyalar-tahlili-fanidan-tayyorlagan.html?page=2>